


# Jahon kombinatsiyali qadoqlash bozori 2035-yilga borib 82 milliard dollarga yetadi

// 24.06.2026

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/jahon-kombinatsiyali-qadoqlash-bozori-2035-yilga-borib-82-mi>



Precedence Research kompaniyasi tahlilchilari hisob-kitoblariga ko'ra, global kombinatsiyali qadoqlash bozori keyingi 10 yil ichida qariyb ikki baravarga o'sadi. **2035-yilga kelib bozor hajmi 82 milliard AQSH dollariga yetadi. Bu ko'rsatkich 2025-yildagi 42,5 milliard dollarga nisbatan sezilarli o'sishni anglatadi.** 2026–2035-yillar davomida bozorning o'rtacha yillik o'sish sur'ati (CAGR) 6,8 foizni tashkil etadi.

Mutaxassislar bozor rivojlanishining asosiy omillari sifatida plastik chiqindilariga oid normativ talablarning kuchaytirilishi, ekologik barqaror qadoqlash yechimlariga bo'lgan talabning ortishi hamda ko'p materialli qadoqlash turlarining keng joriy etilishini ko'rsatmoqda.

Materiallar kesimida bozorning eng katta ulushi (40 foiz) plastik hissasiga to'g'ri keladi. Biroq eng tez o'suvchi segment qog'oz va karton mahsulotlari bo'lib, ularning o'rtacha yillik o'sish sur'ati 7,8 foizni tashkil qilishi kutilmoqda. **Qadoqlash turlari orasida qattiq kombinatsiyali qadoqlash yetakchilik qilib, bozorning 55 foizini egallaydi. Shu bilan birga, egiluvchan qadoqlash formatlari eng yuqori o'sish sur'atini namoyon etib, ularning CAGR ko'rsatkichi 7,5 foizni tashkil etadi.**

Hozirgi kunda bozorda Shimoliy Amerika yetakchi o'rinni egallab, umumiy ulushning 30 foiziga ega.

**Biroq eng yuqori o'sish sur'ati Osiyo-Tinch okeani mintaqasida kuzatilishi prognoz qilinmoqda — CAGR 7,8 foiz.** Kombinatsiyali qadoqlash mahsulotlaridan foydalanishning asosiy sohalari oziq-ovqat sanoati (40 foiz) va farmatsevtika tarmog'i (20 foiz) hisoblanadi.